



AHAMONIYLAR SULOLASINING VUJUDGA KELISHI VA DORO I ISLOHOTLARI

Umirzoqov Nurbek¹, Sherbek Shermatov², Boboxonov Lochinbek³

¹ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail:umirzoqovnurbek6@gmail.com

E-mail:sherbekshermatov07@gmail.com

Email: lochinekboboxonov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813009>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 20-Dekabr 2021

Chop etildi: 25-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Fors, Ahamon, darik, satrab, xshatra, DoroI, midiyalik

ANNOTATSIYA

Qadimgi Fors davlati hozirgi kunda Eron islom respublikasi hududiga asosiy qismi to'g'ri keladi .1935 -yilgacha Eron deb atalmagan ushu davlat , Oldingi nomi Fors deb yuritilgan . Har bir davlatning o'ziga yarasha boy tarixi bo'lgani kabi Eronning ham boy tarixi mavjud . Dunyoda eng qadimgi va dastlabki svillizatsiya qadimgi Yunonistonda undan keyin esa , Krit orolida vujudga kelgan bo'lsada Qadimgi Eron hududida vujudga kelgan imperiya ,ulkan davlatchalik butun dunyoga mashxur bo'lgan emas .

Qadimgi dunyo tarixi inson paydo bo'lganidan to G'arbiy rim imperiyasining qulashigacha 476 yilgacha bo'lgan bo'lgan davr oralig'ida yuksak cho'qillarni zabt etgan Eron davlati tarixida Ahamoniylar sulolasi deyarli 200 yil hukmronligi oralig'ida juda ulkan ishlarni amalga oshirgan.Qadimgi dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan .Ular o'zlarrining savdo yo'llarini bunyod etib mamlakat savdo - sotiq ishlarini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shishgan . Butun mamlakaat uchun yagona oltin tanga joriy etish orqali esa ,pul islohotini o'tkazgan .Ahamoniylar sulolasi vvujudga kelguniga qadaar qadimgi Eron hududida kasiylar ,elamiylar singari qabilalar yashaagan.Keyinchalik u yerga midiyaliklar va forslar kelib

joylashadi.Sulolaning vujudga kelishi haqida R.Rajabov malumotiga ko'ra , quydagicha talqin etiladi .Forslar to'g'risidagi ma'lumotlar ilk bor Osuriya yozuvlarida uchraydi. Osur podshosi Salmanasar III ning mil.avv. 843-yildagi yozuvida Parsua viloyati tilga olinadi. Osuriya mil.avv. 843-yilda bu viloyatning 27 «podshosidan» xiroj olgan. Bu viloyatlar Markaziy Zagros tog'larida joylashgan deb faraz qilinadi. Bu vaqtda ko'p sonli fors qabilalari tarqoq yashaganlar. Mil.avv. VIII asr oxiridagi osur manbalarida Elamdan shimoli-g'arbda joylashgan (hozirgi Sulaymoniya shahridan sharqda) Parsuash mamlakati eslatiladi. Taxminan mil.avv. 800-yillar atrofida forslar qardosh midianitlardan uzoqlashib, janubiy-sharq



tomon asta-sekin siljiydilar. Mil.avv. 714-yilda forslar osur podshosi Sargon II ning fuqarosi sifatida tilga olinadi. Ma'lum vaqt davomida forslar Eronning janubiy-g'arbida Elamning asl hududlarini egalladilar. Natijada bu hudud yangi kelgindilar nomi bilan Pars nomini oladi. Bu hudud hozirgi Eronning Fors viloyatiga to'g'ri keladi. Fors so'zi Parsning arab tilida aytilishi bo'lib, mamlakat va fors xalqini, ularning poytaxti Pasargad (yunon tilida Persepol)ni bildiradi.

Forslar mil.avv. VII asrning o'rtalarigacha Elamga, keyin esa qisqa vaqt Osuriyaga o'lpon to'ladilar. Ko'rinishidan shu vaqtdan boshlab forslar ahmonlar urug'idan bo'lgan yo'l boshchilar yetakchilik qilgan qabilalar ittifoqini tashkil qiladilar. Sulolaning asoschisi an'ana bo'yicha Ahmon hisoblanadi. Mil. avv. 675-650-yillarda fors qabilalari ittifoqini Chishpish nomli yo'l boshchi boshqaradi. An'anaga ko'ra, Ahmonning o'g'li Chishpishdan so'ng podsholik hokimiyati Kayxusravga o'tadi. Kayxusrav Mil.avv. 642-yil osurlar Elamni zabt etganda, Osuriyaga qaramligini tan oladi va katta o'g'lini garovga Nineviyaga jo'natadi. Kayxusravning ikkinchi o'g'li Kambiz I mil.avv. 600-559-yillar podsholik qiladi. Navbatdagi Parsuash hokimi Kambiz I ning o'g'li Kayxusrav II bo'lgan. Mil.avv. 558-yilda fors qabilalari podshosi bo'ldi. Forslar o'zlari qaram bo'lgan Midiyaga qarshi mil.avv. 553-yilda Kayxusrav II boshchiligida qo'zg'olon ko'tardilar. Kayxusravning otasi Kambiz Midiya podshosi Astiagning qiziga uylangan edi. Urush uch yil davom etdi va mil.avv. 550-yilda forslarning g'alabasi bilan tugadi. Midiyaning poytaxti Ekbatana fors podshosining qarorgohlaridan biri bo'lib qoldi. Kayxusrav (Kir II) ushbu hududlarni

bosib olganidan keyin o'z davrining qudratli bo'lgan yirik davlatlarni bosib oladi, shu jumladan bizning hudud O'rta osiyga ham yurish qilib ko'rgan.

Midiya bosib olinganidan keyin forslar qo'shni mamlakatlarga yurish boshladilar. Ular mil.avv. 549-548-yillar Parfiya va Girkaniyani va ehtimol, Armanistonni bosib oladilar. Mil.avv. 547-yilda forslar Kichik Osiyoda eng kuchli davlat hisoblangan Lidiyani istilo qilishga kirishdilar va ikki jangdan so'ng Lidiya podsholigi istilo qilinadi. Shundan so'ng, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari Kayxusrav hokimiyatini ko'ngilli tan oldilar. Kayxusrav mil.avv. 545-yildan 530-yilgacha hozirgi Eronning sharqiy hududlari, Afg'oniston va Hindiston, O'rta Osiyodagi ba'zi viloyatlarni va Marg'iyona, Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya, Ariya, Gedrosiya, Sattagidiya, Araxosiy va Gandxarani bo'ysundirdi. Ahmoniyalar davlati hududlari Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindiqushning janubiy yonbag'irlarigacha yetdi. Kayxusrav shimoliy-sharqiy yo'nalishlarda o'z ta'sirini mustahkamlab oldi. Shundan so'ng Kayxusravning navbatdagi yurishi natijasida mil.avv. 539-yil kuzida Bobil podsholigi bosib olindi.

Ahamoniyalar sulolasining yorqin vakillaridan biri yunon eron urushi boshlanishiga sababchi va uning ishtirokchisi Doro I bosqinchilik yurishlaridan tashqari bir qancha bunyodkorlik ishlarini ham olib borgan. Uning tarixda qilgan ishlaridan eng yirigi bu Behistun qoyatosh yozuvlarini yozdirgan. Behistun yozuvlari nafaqat Eron tarixi balki O'rta osiyo va qadimgi sharq tarixi davlatlari tarixi haqida bayon etadi. Qoyatosh yozuvlari xalqlarning



etnologiyasi , tarixi , madaniyati haqida yozilgan .Sagdullaev ma'lumotlariga ko'ra Behistun qoyatosh yozuvlari vatanimiz tarixidagi dastlabki kurtaklari bo'lgan Qadimgi Xorazm, Baqatriya ,Sug'diyona aholisi madaniyati haqida ma'lumotlar borligi aniqlangan .

Behistun qoyatosh yozuvlari haqida Abdiyev bergan ma'lumotlarga ko'ra Ushbu qoyatosh yozuvlari hozirgi kunda Bog'doddan Tehronga boradigan yo'ldagi baland qoyaga yozilganligini takidlaydi .Rajabovning ma'lumotlariga ko'ra esa, U Eronning Hamadon (Midiyaning qadimgi poytaxti Ekbatana) shahri yaqinidan Behistun qoyasida Doro I ning uch tildagi qoyatosh yozuvini tekshirdi. 1947-yilda Roulingson Behustun yozuvining Bobil qismidagi 600 belgidan 250 tasini o'qidi. 1855-yilda Behustun yozuvining uchinchi qismi bo'lgan elam tilidagi mixxatlar ham olimlar tomonidan o'qildi. Qoyatosh yozuvlari Qadimgi bobil ,elam va akkad tillarida bitilgan .

Doro I reforma(islohot) laridan yana biri bu moliyaviy islohotidir . U markazlashgan mamlakatning barcha hududi uchun yagona "darik "deb atalgan oltin pulni zarb ettiradi . Uning og'irligi 8.416 grammni tashkil etgan .Undan tashqari Geradotning ma'lumotlariga ko'ra Doro I taxtga o'tirmasidan avval yetti kishidan iborat kengash tuzadi vas hu kengash a'zolari tomonidan podsholikka saylanadi . Ushbu kengash a'zolari shohning huzuriga to'g'ridan -to'g'ri kirish huquqiga ega bo'lgan .DoroIning vorisi Kserks otasi vafotidan keyin u , davom ettirayotgan yirik jang Yunon -Eron (Fors) urushiga yurishda shu yetti kishilik kengash bilan maslahatlashib keyin yurish qilgan . Podsho Kengash a'zolari birining

qiziga uylanishga majbur bo'lgan . Doro I hokimiyatga kelganida mamlakatning barcha provinsiyalarida qo'zg'alon avj olgan edi ,Bu haqida Behistun qoyatosh yozuvlarida keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak , Doro I aytadiki : Men xudo Ahuramazdaning irodasi bilan menga qarshi chiqqan podsholiklarga jami bo'lib 19 marta yurish qildim va 9 podshoni asir oldim deydi .

Doro I ning yana bitta islohotlaridan biri bu mamlakatni satrapliklarga ajratganligidir . Doro I mil.avv. 515-yil atrofida mamlakatni satrapiya (viloyat, fors tilida kshatriy) deb atalgan ma'muriy hududlarga bo'ldi: Kichik Osiyo to'rt satraplik to'rt bosh shahar bilan (Milet, Sard, Daskiley va Tars); Misr markazi Memfis bo'lgan o'ltinchi satraplik; Osuriya Bobil bilan birga to'qqizinchi satraplik; o'ninchi satraplik Midiya; yigirmanchi satraplik Hind daryosining o'ng qir'g'og'i hududi. Satrapliklar ro'yxati Behistun va boshqa qadimgi fors yozuvlarida keltiriladi. Ularda 23 mamlakat sanaladi. 20 satraplik keltirildi. Gerodot 20 satraplik tarkibida Ahmoniylar davlati tarkibiga kirgan 70 ta shaharni sanaydi.

Doro I islohotlari agrar sohada katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Qaram xalqlarning yerlari tortib olinib, podsho oila a'zolariga, fors aslzodalari va amaldorlariga meros qilib beriladi.Bunday yer-mulklar soliقدan ozod qilingan. Podsho tomonidan alohida xizmat ko'rsatgan qo'shinlarga beriladigan yerlar merosiy bo'lib, soliقدan ozod qilingan. Bunday imtiyozga ega kishilar qaram viloyatlarda sud ishlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lganlar. Yerlarning katta qismi podshoning mulki edi. Podsho yerlari, odatda, ijaraga berilgan. Bundan tashqari,



yirik sug'orish kanallari podshoga qaragan.
O'rta Osiyodagi Aq daryosi havzasidagi
sug'orish inshootlari, Suriyadagi o'rmonlar,

Misrdagi Fayum ko'lida baliqchilikdan
keladigan daromadlar, konlar, bog' va
saroylar podsho ixtiyorida bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Radjabov Qadimgi dunyo tarixi T: Toshkent 2015
2. V.Abdiyev .Qadimgi sharq tarixiT:Toshkent 1964
3. Sh.Karimov ,R.Shamsutdinov.Vatan tarixi T:Toshkent.2010